

TARIXIY YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIK MEROSDAN FOYDALANISHNING BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY TAYYORGARLIGIGA TA'SIRI

Zafarbek Abdullayev

Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti dekani

Tel: +998 99-051-26-80

PhD., dots, R.Lutfetdinova taqrizi asosida

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik merosni tarixiy yondashuv asosida o'rganishning bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga ta'siri tahlil qilinadi. Tarixiy yondashuvning mazmun-mohiyati ochib berilib, u orqali pedagogik fikr rivojining bosqichlari, ilg'or tajriba va qadriyatlarning zamonaviy ta'limga integratsiyalashuvi yoritiladi. Muallif pedagogik merosning kasbga bo'lgan hurmatni oshirish, milliy qadriyatlar asosida faoliyat yuritishni shakllantirish, metodik va ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rnini asoslab beradi. Maqolada shuningdek, tarixiy tajribani o'rganish orqali pedagogik tafakkurning boyitilishi, kasbiy o'zlikni anglash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishi ta'kidlanadi. Xulosa qismida esa, ushbu yondashuvni ta'lim tizimida samarali qo'llash bo'lajak pedagoglar tayyorgarligi sifatini oshirishda muhim omil ekani qayd etiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik meros, tarixiy yondashuv, bo'lajak pedagog, kasbiy tayyorgarlik, milliy qadriyatlar, ta'lim tarixi, metodik ko'nikmalar, ijodiy fikrlash, pedagogik tafakkur, innovatsion yondashuv.

ВЛИЯНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ НА ПРОФЕССИОНАЛЬНУЮ ПОДГОТОВКУ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ ИСТОРИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация. В данной статье анализируется влияние изучения педагогического наследия на профессиональную подготовку будущих педагогов на основе исторического подхода. Раскрывается сущность исторического подхода, посредством которого освещаются этапы развития педагогической мысли, интеграция передового опыта и ценностей в современное образование. Автор обосновывает место педагогического наследия в воспитании уважения к профессии, формировании деятельности на основе национальных ценностей, развитии методических и творческих умений и навыков. В статье также подчеркивается обогащение педагогического мышления через изучение исторического опыта, формирование профессионального самосознания и навыков критического мышления. В заключительной части отмечается, что эффективное применение данного подхода в системе образования является важным фактором повышения качества подготовки будущих педагогов.

Ключевые слова: педагогическое наследие, исторический подход, будущий педагог, профессиональная подготовка, национальные ценности, история образования,

методические навыки, творческое мышление, педагогическое мышление, инновационный подход.

THE IMPACT OF THE USE OF PEDAGOGICAL HERITAGE ON THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE EDUCATORS ON THE BASIS OF A HISTORICAL APPROACH

Annotation. *This article analyzes the impact of the study of pedagogical heritage on the professional training of future educators on the basis of a historical approach. The essence and essence of the historical approach is revealed, through which the stages of the development of pedagogical thought, advanced experience and integration of values into modern education are highlighted. The author bases the role of pedagogical heritage in increasing respect for the profession, the formation of activities based on national values, the development of methodological and creative skills. The article also emphasizes the enrichment of pedagogical thinking through the study of historical experience, the formation of professional self-awareness and critical thinking skills. In the summary part, it is noted that the effective application of this approach in the educational system is an important factor in improving the quality of training of future educators.*

Key words: *pedagogical heritage, historical approach, future educator, professional training, national values, educational history, methodological skills, creative thinking, pedagogical thinking, innovative approach.*

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy maqsadi – zamonaviy fikrlovchi, yuksak kasbiy kompetensiyaga ega, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq pedagoglarni tayyorlashdan iborat. Bu jarayonda xalqimizning boy pedagogik merosidan, ilg'or tajribasidan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tarixiy yondashuv esa pedagogik tafakkur taraqqiyotining mantiqiy izchilligini anglash, o'z zamonasida ilg'or bo'lgan g'oyalarni zamonaviy sharoitga mos tarzda qayta talqin etishga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Pedagogik fikr va ta'lim tizimining shakllanishi, rivojlanishi masalalari J.A. Komenskiy, I.G. Pestalotsi, J.J. Russo, K.D. Ushinskiy kabi klassik pedagoglar asarlarida chuqur yoritilgan. Xususan, K.D. Ushinskiyning "Inson – tarbiya ob'ekti sifatida" asarida ta'lim va tarbiyaning tarixiy rivojiga, milliylik tamoyiliga alohida urg'u berilgan. Bu yondashuv bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Shuningdek, H.T. Toxtasinov, A.A. Jo'rayev, Sh.S. Sharipov kabi o'zbek olimlarining

ilmiy izlanishlarida mustaqillik yillarida ta'lim tizimining milliy asosda qayta qurilishi, tarixiy merosga tayanish, milliy model yaratish masalalari tahlil qilingan [3].

A.A. Muxitdinovanning tadqiqotlarida pedagogik jarayonda tarixiylik va uzviylik tamoyillari asosida o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash mexanizmlari ochib berilgan. R.N. Amonov esa, o'z tadqiqotlarida pedagogik jarayonlarda tarixiy yondashuvni qo'llash orqali shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish mumkinligini asoslaydi [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik meros deganda insoniyat tomonidan tarix davomida ta'lim-tarbiya sohasida to'plangan ma'naviy, ma'rifiy va axloqiy qadriyatlar, shuningdek, pedagogik tajriba asosida yaratilgan ilmiy-nazariy qarashlar va tamoyillar majmui tushuniladi. Bu meros – avloddan-avlodga o'tib kelayotgan bilimlar, tarbiya usullari, o'qitish metodikalari, ijtimoiy-madaniy qadriyatlar hamda ustoz-shogird an'analari orqali shakllanib borgan bebaho ilmiy va amaliy boylikdir. Pedagogik meros o'zida nafaqat o'tmishdagi pedagogik qarashlarni, balki har bir davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hamda mafkuraviy holatini ham aks ettiradi. Shuning uchun ham u har bir jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Pedagogika fanining tarixiy rivojlanishini o'rganishda **tarixiy yondashuv** muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy yondashuv deganda, pedagogika fanining rivojlanish bosqichlarini tizimli ravishda tahlil qilish, turli davr va sivilizatsiyalar vakillarining ta'lim va tarbiyaga oid qarashlarini solishtirish, ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini ochib berish tushuniladi. Bu yondashuv orqali qadimdan to hozirgi kungacha pedagogik tafakkurning qanday shakllangani, qanday bosqichlardan o'tgani, qanday muammolar yuzaga kelgani va ularning yechimlari qanday bo'lganini o'rganish mumkin.

Shuningdek, tarixiy yondashuv nafaqat o'tmishni bilishga, balki zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimidagi muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularni hal etishda ilg'or tajribalardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Masalan, qadimgi Yunoniston, Sharq va Yevropa pedagoglarining qarashlari bugungi ta'lim jarayonida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ularning insonparvarlik, shaxsga yo'naltirilgan

yondashuv, bilim va tarbiyani uyg'unlashtirish haqidagi g'oyalari bugungi zamonaviy pedagogik konsepsiyalarga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi globallashuv va tezkor axborot oqimi sharoitida ta'lim-tarbiya tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – zamonaviy talablar asosida yetuk, raqobatbardosh va milliy g'ururga ega pedagoglarni tayyorlashdir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik merosni chuqur o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu jarayon nafaqat ularning bilim va ko'nikmalarini boyitadi, balki kasbga bo'lgan munosabatini, shaxsiy va professional yuksalishini ta'minlaydi.

Avvalo, pedagogik merosni o'rganish o'qituvchilik kasbiga bo'lgan hurmatni oshiradi. Tarixiy pedagogik qarashlar bilan tanishgan talaba-o'qituvchilar buyuk allomalarimiz – Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Mahmud Qoshg'ariy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarning ta'lim-tarbiya borasidagi ibratli fikrlari va faoliyati bilan tanishadi. Ularning ta'limga bergan e'tibori, o'qituvchilik kasbiga bo'lgan yuksak e'tirofi, zamonlar osha ahamiyatini yo'qotmagan. Bu esa, bo'lajak pedagogda o'z kasbiga nisbatan faxr, hurmat va mas'uliyat hissini shakllantiradi.

Shuningdek, pedagogik meros milliy qadriyatlarni anglash va ularga asoslangan faoliyat yuritishni shakllantiradi. Tarixiy tajribani o'rganish orqali talabalar xalqimizga xos bo'lgan odob-axloq, mehr-oqibat, muruvvat, kattalarga hurmat, vatanparvarlik kabi fazilatlarining pedagogik mazmunini chuqurroq tushunadi. Bu esa ularning nafaqat kasbiy, balki fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlab, ta'lim jarayonida milliylikka asoslangan yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, pedagogik merosni o'rganish orqali metodik ko'nikmalar boyitiladi. Tarixiy manbalar va buyuk pedagoglarning asarlarida ilgari surilgan dars o'tkazish usullari, tarbiyaviy yondashuvlar, o'qitish texnologiyalari bo'lajak pedagoglarga o'z faoliyatida yangi, samarali uslublarni qo'llash imkonini beradi. Bu esa ularni zamonaviy ta'lim muhitida kreativ, metodik jihatdan qurollangan mutaxassis bo'lib shakllanishiga zamin yaratadi.

Eng muhimi, pedagogik meros asosida ta'lim olish ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tarixiy shaxslar, ularning qarashlari, ta'limga qo'shgan hissasi ustida tahliliy fikr yuritish, ularni zamonaviy masalalar bilan bog'lash orqali talaba-o'qituvchilarning tafakkuri kengayadi, muammolarga yangicha yondashuvni shakllantirishga o'rganadi. Bunday fikrlash esa, pedagogik faoliyatda eng zarur bo'lgan kompetensiyalardan biri hisoblanadi.

Masalan, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy, Ismoil G'aspiralilar kabi ma'rifatparvarlarning g'oyalari bugungi pedagogika jarayonida axloqiy tarbiya, milliy o'zlikni anglash, ilg'or metodlardan foydalanish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot doirasida mavzu bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan:

1. Pedagogika fanini o'qitishda tarixiy manbalardan (eski darsliklar, risolalar, maqolalar) foydalanish;
2. Bo'lajak o'qituvchilarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirish (ma'rifatparvar pedagoglar merosi asosida kurs ishlari, referatlar yozish);
3. Simulyatsion mashg'ulotlarda tarixiy shaxslar obrazlarini canlantirish orqali darslarni jonlantirish;
4. Tarixiy yondashuv asosida multimediya resurslar, loyihaviy ishlar tashkil etish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik merosni tarixiy yondashuv asosida o'rganish bo'lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishi va intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Tarixiy yondashuv orqali pedagogik fikrning shakllanish bosqichlari, muhim g'oyalari va tajribalari tizimli tarzda tahlil qilinadi. Bu jarayon talabalarni o'z sohasining ildizlari, milliy va jahon pedagogik tafakkuri bilan tanishtiribgina qolmay, balki ularning kasbiy pozitsiyasi, axloqiy mas'uliyati va ijtimoiy ongini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, tarixiy yondashuv asosida pedagogik merosni chuqur tahlil qilish quyidagi natijalarga olib keladi:

1. O'qituvchilik kasbiga bo'lgan ijtimoiy-madaniy va ma'naviy munosabatni shakllantiradi;
2. Kasbga bo'lgan qiziqishni oshiradi va professional motivatsiyani kuchaytiradi;
3. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanilgan yondashuv asosida mustahkam g'oyaviy pozitsiyani rivojlantiradi;
4. ijodkorlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi;
5. o'qitish metodlari va yondashuvlarini tarixiy tajriba asosida boyitishga yordam beradi.

Bu esa, o'z navbatida, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini chuqurlashtirib, ularni hozirgi zamon talablari darajasida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

1. Tarixiy yondashuv asosida pedagogik merosni o'rganish bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Ushbu yondashuv ularning kasbiy o'zlikni anglash, tarixiy-madaniy merosga hurmat bilan yondashish, pedagogik qarashlarni tanqidiy tahlil qilish va zamonaviy muammolarga innovatsion yechim topish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

2. Pedagogik ta'limda tarixiy yondashuvni tizimli ravishda tatbiq etish, o'quv dasturlariga pedagogik merosga oid modullarni chuqurlashtirib kiritish va amaliy mashg'ulotlarda tarixiy tajribalarni zamonaviy kontekstda talqin qilish kabi yondashuvlar bo'lajak pedagoglar tayyorgarligining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pedagogik merosni tarixiy yondashuv asosida o'rganish bo'lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishida muhim ilmiy-nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy yondashuv orqali o'tmishdagi pedagogik qarashlar, usullar va tajribalar chuqur tahlil qilinib, ular zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilinadi. Bu jarayon pedagogik tafakkurning uzviyligini ta'minlab, bo'lajak o'qituvchilarda kasbga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, metodik madaniyat va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shu bois, pedagogik ta'lim jarayonida tarixiy yondashuvni faol qo'llash va pedagogik merosni chuqur o'rgatish orqali zamonaviy, raqobatbardosh, milliy g'oyaga sodiq, yetuk pedagoglar avlodini tarbiyalash mumkin. Bu esa ta'lim-tarbiya sifatining yuksalishi va barqaror ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Sh.Mirziyoyev. 2024-yil 19-yanvardagi "Ijtimoiy-gumanitar fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda" mavzusida o'tkazilgan nutqi.
2. Z.G'Abdullayev. Turkiston boshqaruv tizimi va aholi hayotida normativ-huquqiy hujjatlarning tutgan o'rni (1917-1924-yillar). Dissertatsiya avtoreferati. 2024-yil.
3. Qambarov M. M. Pedagogika tarixi. Toshkent. 2023. – B .288
4. Sharifzoda S.O', Otajonov O.A., Kutlimurotova N.R., Matmurotov A.A, Raximova A.D.Pedagogika nazariyasi va tarixi (I-qism). Bookmany print. 2023. – B. 400
5. Xodjayev B. X.Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Sano-standart. 2017. – B. 416